PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Murtazoyeva Yulduz Samariddinovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti Urgut filiali 4-kurs talabasi

murtazoyevayulduz9@ gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20055748

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy faolligini oshirishda o‘qituvchining ahamiyati, vazifasi, pedagogik mahorati haqida fikr yuritilgan. Va bu masalada pedagog qanday metodlardan foydalanishi mumkin, chet elda bu yo‘nalish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilgani haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, boshlang‘ich sinf, pedagogik mahorat, yo‘nalish, met, usul.

Аннотация: This article discusses the importance, role, and pedagogical skills of a teacher in increasing the social activity of primary school students. It also provides information on what methods a teacher can use in this regard, and what work has been done in this area abroad.

Ключевые слова: teacher, primary school, pedagogical skills, direction, method.

Abstract: В данной статье рассматриваются важность, роль и педагогические навыки учителя в повышении социальной активност учащихся начальной школы. Также представлена информация о методах, которые может использовать учитель в этом отношении, и о работе, проделанной в этой области за рубежом.

Keywords: учитель, начальная школа,педагогические навыки, руководство, метод, методика

Kirish: Boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bu nafaqat ta’lim bosqichida, balki bir shaxsning jamiyatga kirib borishida, o‘z o‘rnini egallashida ham muhim bosqich hisoblanadi. [1] Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish bu maktab faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Chunki shu davrdan bolalarning fikrlash qobiliyatlari, o‘zini tutishi, ta’lim – tarbiyasi shakllanib boradi. Bolada bu jihatlarni shakllantirishda pedagogning ota- onaga nisbatan ta’sir doirasi katta hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z ustozlarini hammadan ustun qo‘yishadi, ularni har bir aytgan gapini, qilgan ishlarini “ eng to‘g‘risi” deyishadi. Pedagogning dunyoqarashi, fikrlash pozitsiyasi, aytgan so‘zi, qilgan xatti- harakati o‘quvchiga yo ijobiy, yo salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘ta ma’suliyatli kasb. Biz o‘qitayotgan o‘quvchilar ertaga o‘z o‘rnini topib ketishi ham, jamiyatda kerakli shaxs bo‘lib yetishishi ham bizning qo‘limizda. Ularga shu davrda to‘g‘ri yo‘nalish bera olsak, kelajakda o‘zimiz faxrlanib yuramiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xuddi endi ekilgan niholga qiyoslanadi. Ularning o‘qituvchilari esa bog‘bonga. Bog‘bon niholni qanday parvarishlasa, nihol xuddi shunday o‘sadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham xuddi shunday.

Adabiyotlar tahlili: Buyuk allomalar boshlang‘ich ta’limni inson shaxsini shakllantirishning asosiy poydevori deb bilishgan. Ular yoshlikdan ilm olish, tarbiya, mehnatsevarlik va axloqiy fazilatlarni shakllantirishni ustuvor vazifa deb hisoblaganlar. Asosiy e’tibor bolaning nutqi, fikrlashi va bilim olish qobiliyatini erta rivojlantirishga qaratilgan. [2] Ya’ni boshlang‘ich ta’lim o‘quvchi uchun poydevor hisoblanishi, o‘quvchilarning barcha izlanishlari boshlang‘ich ta’limdagi qadamdan

boshlanishini aytib o‘tishgan. Yusuf Xos Hojib esa "Qutadg‘u bilig" asarida bolaning bilimli bo‘lishi uchun yoshligidan ilmiy saboq berish, axloqini tarbiyalash lozimligini, "yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh" ekanligini ta’kidlagan. Bola ilmli, salohiyatli, jamiyatga kerakli shaxs bo‘lib yetishishi uchun uni yoshlikdan tarbiyalash kerakligi, bu holi bola o‘ynab oldin, bolaligini sursin deb uni nazoratdan chiqarib yubormaslik haqida aytib o‘tgan. Abdulla Avloniy: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", deya ta’lim va tarbiyaning boshlang‘ich bosqichidan boshlab shaxsni shakllantirish muhimligini uqtirgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshlang‘ich ta’limni Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim poydevori deb hisoblaydi. Uning bu boradagi asosiy fikrlari quyidagilardan iborat.

Tizimning asosi: "Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan tamoyil asosida boshlang‘ich ta’lim sifatiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Darsliklar islohoti: Ta’lim sifatini oshirish uchun, eng avvalo, boshlang‘ich sinf darsliklarini xalqaro standartlar asosida yangilash birinchi darajali vazifa etib belgilangan.

O‘qituvchi maqomi: Boshlang‘ich sinf muallimlarining jamiyatdagi nufuzini oshirish va ularni darsdan tashqari ishlarga jalb qilmaslik davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Mantiqiy fikrlash: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yoshligidan mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhimligi ta’kidlangan.

Xalqaro tajriba: Ta’lim metodikasini o‘zgartirishda Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish zarurligi uqtirilgan.

Muhokama va natijalar: O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlarning ham zamirida shu maqsad: yoshlarni jamiyatga munosib shaxs, ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli , bir so‘z bilan aytganda komil inson qilib tarbiyalash yotadi. Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi har doim dolzarb mavzu sifatida qaralgan. Chunki davlatni kelajagi shu yosh avlodni qo‘lida. Har qanday rivojlangan davlatni ko‘rsak, bu davlat eng avvalo yoshlarini ta’lim – tarbiyasiga katta e’tibor berganini guvohi bo‘lamiz. Yoshlarning ta’lim- tarbiyasi birinchi o‘rinda bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda ularning ijtimoiy rivojlanishi turadi. Yuqorida ta’kidlanganimizdek, inson hayotidagi eng muhim bosqich – maktab davri, xususan boshlang‘ich ta’lim bosqichidir. Aynan shu davrda shaxsning poydevori, jamiyatga qarashi shakllanadi. Shuning uchun ham pedagogika va psixologiyada boshlang‘ich sinf davri alohida o‘rganiladi. Bu davrda nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy, ijtimoiylashuv jarayonlarini ham to‘g‘ri tashkil etish kerak.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirishimiz uchun avvalo, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi bo‘lib yetishtirgan kadrlarni malakasini rivojlantirishimiz kerak. Hozirgi davrda bo‘lajak mutaxassislarda zamonaviy ko‘nikma va malakalarni kasbiy faoliyat uchun zarur darajalarda shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Endi hozirgi kunda bu sohada qilingan ishlar haqida gaplashsak. Hozirgi kunda yosh o‘quvchilarni faollik, tashabbuskorlik bilan voyaga yetkazish 21- asrning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Boshlang‘ich darajadagi yosh o‘quvchilarga ilmiy ta’lim beradigan zamonaviy pedagogika turli muammolarga duch kelmoqda. Buyuk Britaniya olimlarining aytishicha, bolalarda konseptual tushunish darajasi ancha pasaygan. Buning sababi qilib esa, o‘qituvchilarning e’tiborsizligi va yomon munosabati, investitsiyaning yetishmovchiligi, jamoatchilikning yetarli darajada aralashmasligi, ilmiy materiallarning kamligi va eng muhimi o‘quvchilarda faollik va tashabbuskorlikning yetishmaganligi kabi omillar olinadi. Yana bir masala, ta’lim berishda ayollarning ozchilikni tashkil etishi, yoki bo‘lsada ilmiy tadqiqot qilishda qancha qiziqish bildirsada

ularga erkaklarga berilagan darajada imkoniyat berilmasligi bu esa o‘quvchilarning estetik ongining pasayishiga olib keladi. Chunki, xohlaymizmi yo‘qmi bola did, farosat va tirishqoqlikni ayol kishidan oladi. Yillar davomida bu muammolarni hal qilish uchun turli izlanishlar va tadqiqotlar olib borildi..

Ta’lim sifatini o‘rganish va uni oshirishda turli xil to‘siqlarga uchralmoqda. Chunki maktab tizimlari va o‘qituvchilar bu kabi omillarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun yetarli darajada tajriba va resursga ega emaslar. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari turli xil fanlardan dars berishi kuzatiladi, ularni aksariyati esa bu fanlarga ixtisoslashmagani kuzatilmoqda. Shunday ekan o‘zi bu fanni to‘liq anglolmagan pedagog o‘quvchilarga bu fanni qay darajada o‘rgatadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda, umuman o‘quvchilarni rivojlantirishda pedagog, o‘qituvchilarning hissasi katta. Ular muhim rol o‘ynaydi. Buni jahon ta’lim tizimi ham isbotlagan. Shunday ekan biz farzandlarimizni munosib shaxs bo‘lib yetishishi uchun avvalo o‘qituvchilarimizga muhim imkoniyatlarni yaratishimiz lozim ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tohirjonova Xumora Azizbek qiziAndijon davlat pedagogika institutiPedagogika fakuleti Pedagogika yo’nalishi
2. Boboqulova Madina Mirzohid qizi Qo’qon universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi, Muborakxon Ganiyeva, Qo’qon universiteti, Ta’lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i, p.f.n.
3. Ibrohimov, A. (2019). Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Tashkent: Xalq ta’limi nashriyoti.
4. Jumaev, T. (2018). O‘qituvchining ijtimoiy-psixologik roli va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 3(15), 45-50.
5. Keldiyorova, Z. (2021). Ijtimoiy tarbiya: Yangi pedagogik yondashuvlar. Tashkent: Ta’lim va taraqqiyot.
6. Pavlova, N. (2016). Socialization of primary school children: The role of family and school. Moscow: Pedagogika.